

Maktabgacha ta'lim tizimida olib borilayotgan ishlar tanqidiy muhokama qilindi.



Surxondaryo viloyatida mavjud davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar uchun yaratilgan sharoitlar, ularga ta'lim-tarbiya berish jarayonlarini sifatli tashkil etish holati va boshqa masalalar Qumqo'rg'on tumanidagi 7-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida videoselektor tarzida muhokama qilindi.

Viloyat hokimining topshirig'i bilan Jarqo'rg'on, Angor, Termiz, Muzrabot, Qiziriq, Bandixon, Qumqo'rg'on, Sho'rchi va Oltinsoy tumanlarida soha mutaxassislari va OAV vakillaridan iborat ishchi guruhi tomonidan bog'chalar faoliyati tanlanma asosida o'rganildi. Muhokama avvalida ushbu o'rganish davomida aniqlangan holatlar aks ettirilgan videolavha namoyish etildi.

Hududlarda o'rganilgan bog'chalarning ayrimlarida obodonlashtirish ishlari qoniqarsizligi, bolalar ovqatini tayyorlash me'yorlariga rioya etilmaganligi, ta'lim-tarbiya jarayonlari to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi aniqlangan. Xato va kamchiliklar aniqlangan qator bog'cha mudiralari va mas'ullarini ishdan olish, ayrimlarini qonun doirasida javobgarlik tortish masalasini ko'rib chiqish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Viloyat rahbari muhokama qilingan bog'chalar misolida barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini o'rganish, kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha muddat va vazifalarni belgilab berdi. Ishchi guruhga topshiriqlar ijrosini qayta o'rganish vazifasi yuklandi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)